TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахитбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	



O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Abdirashidov Ashirali

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: ashirali.abdirashidov@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7737-0155

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududlari bo'yab iste'mol tovarlari bozorini rivojlantirishda elektron chakana savdoning ortib borayotgan roli o'rganiladi. Unda elektron tijoratning tez kengayishining asosiy omillari, jumladan, raqamlashtirish, internet xizmatlarini yaxshilash, logistikada modernizatsiya va iste'molchilar xatti-harakatlarini o'zgarishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda elektron chakana savdo platformalari bozorga kirishini oshirish, raqobatni kuchaytirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishga qanday hissa qo'shishi o'rganiladi. Elektron tijoratni rivojlantirishdagi hududlararo tafovutlarga va uning keyingi integratsiyasiga to'sqinlik qiladigan muammolarga, masalan, infratuzilma, raqamli savodxonlik darajasi va ularni tartibga solishdagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: elektron chakana savdo, elektron tijorat, iste'mol tovarlari bozori, mintaqaviy rivojlanish, raqamlashtirish, logistika, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. This article examines the growing role of e-retail in the development of consumer goods markets across the regions of Uzbekistan. It analyzes the main factors behind the rapid expansion of e-commerce, including digitalization, improving internet services, modernization of logistics, and changing consumer behavior. The study examines how e-retail platforms contribute to regional economic growth by increasing market penetration, enhancing competition, and supporting small businesses and private entrepreneurship. Particular attention is paid to regional disparities in the development of e-commerce and issues that hinder its further integration, such as infrastructure, digital literacy levels, and regulatory issues.

Key words: electronic retailing, e-commerce, consumer goods market, regional development, digitalization, logistics, digital economy.

Аннотация. В данной статье рассматривается растущая роль электронной розничной торговли в развитии рынков потребительских товаров в различных регионах Узбекистана. Анализируются основные факторы, обуславливающие стремительное расширение электронной коммерции, включая цифровизацию, улучшение интернет-услуг, модернизацию логистики и изменение потребительского поведения. В исследовании рассматривается, как платформы электронной розничной торговли способствуют региональному экономическому росту за счет увеличения проникновения на рынок, усиления конкуренции и поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства. Особое внимание уделяется региональным различиям в развитии электронной коммерции и проблемам, препятствующим ее дальнейшей интеграции, таким как инфраструктура, уровень цифровой грамотности и нормативно-правовые вопросы.

Ключевые слова: электронная розничная торговля, электронная коммерция, рынок потребительских товаров, региональное развитие, цифровизация, логистика, цифровая экономика.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda O'zbekistonda chakana savdoning raqamli transformatsiyasi iste'mol tovarlari bozorlari, xususan mamlakat mintaqalarida, bozor manzarasini sezilarli darajada o'zgartira boshladi. Telekommunikatsiya infratuzilmasining jadal rivojlanishi va internetdan foydalanishning kengayishi onlayn tijoratning yangi bosqichi uchun mustahkam zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025) ma'lumotlariga



ko'ra, 2025-yil yanvar–avgust oylariga kelib aholining qariyb 94,2 foizi internetdan foydalangan. Raqamli texnologiyalarning bunday keng tarqalishi, shuningdek aholining uchdan bir qismidan ortig'ining 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hissasiga to'g'ri kelishi, shahar va qishloq hududlarida elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay demografik va ijtimoiy asos mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, elektron chakana savdoning umumiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi hozircha nisbatan kam darajada qolmoqda. Munamedia (2025) ma'lumotlariga ko'ra, elektron tijorat O'zbekistondagi umumiy chakana savdoning qariyb 3 foizini tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich raqamlashtirish orqali yaratilgan salohiyat hamda elektron chakana savdoning amaldagi rivojlanish darajasi o'rtasida hali to'liq ishga solinmagan imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda O'zbekistonda umumiy chakana savdo hajmi taxminan 31,1 milliard AQSH dollarini tashkil etib, avvalgi yillarga nisbatan nominal ifodada qariyb 10 foizga o'sdi. Bu esa mamlakat chakana savdo bozorining barqaror rivojlanayotganini va elektron tijorat uchun kengayish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, an'anaviy savdo shakllari ustun bo'lgan mintaqaviy bozorlar elektron savdo platformalari uchun istiqbolli yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda elektron tijoratning rivojlanish sur'atlari sezilarli darajada tezlashgani e'tiborga loyiq. Jumladan, 2022-yilda faoliyatini boshlagan Uzum Market milliy elektron savdo platformasi qisqa muddatda keng auditoriyani qamrab oldi va 2023-yilda 13,5 milliondan ortiq yuklab olish ko'rsatkichi bilan eng ko'p yuklab olingan mahalliy ilovalardan biriga aylandi. Xalqaro auditorlik va konsalting kompaniyasi KPMG tahlillariga ko'ra, O'zbekiston elektron tijorat bozori 2027-yilga kelib yetti baravargacha o'sib, taxminan 2,2 milliard AQSH dollariga yetishi, uning umumiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi esa 9-11 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda.

Mazkur ijobiy dinamika elektron chakana savdoning O'zbekiston mintaqalari bo'ylab iste'mol tovarlari bozorining kelgusidagi rivojlanishida muhim strategik omilga aylanishini ko'rsatadi. Internet tarmog'ining chekka hududlarga yetib borishi, qulay demografik tuzilma, institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayishi hamda zamonaviy logistika infratuzilmasining shakllanib borishi ushbu sohada barqaror o'sish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilma rivojlanishining notekisligi, raqamli savodxonlik darajalaridagi tafovutlar va xarid qobiliyatidagi mintaqaviy farqlar elektron tijoratning rivojlanish trayektoriyasiga ta'sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq bu jihatlar maqsadli siyosiy va institutsional choralar orqali bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin bo'lgan rivojlanish nuqtalari sifatida qaraladi.

Shu nuqtai nazardan, elektron chakana savdoning rolini tizimli va kompleks o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Raqamli tijorat iste'mol tovarlarining hududlar bo'yicha mavjudligiga, chakana sotuvchilar o'rtasidagi raqobat muhitiga, chekka va kam xizmat ko'rsatiladigan hududlarda bozorga kirish imkoniyatlariga, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining milliy hamda mintaqaviy ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuviga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur tahlil qilish zarur. Ushbu jihatlarni o'rganish orqali mazkur maqola elektron tijorat O'zbekistonning turli ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarida yanada inklyuziv, samarali va barqaror iste'mol bozorini shakllantirishga qanday hissa qo'sha olishini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijoratning global miqyosda jadal kengayishi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, uning chakana savdo tuzilmasi, ta'minot zanjirlari hamda iste'molchilar xatti-harakatlariga transformatsion ta'siri alohida ta'kidlanadi. Ziad Almtiri va hammualliflar (2023) tadqiqotlariga ko'ra, o'tish davridagi va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda elektron chakana savdo ko'pincha ta'minot zanjirlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bozorga faol jalb etish hamda bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun samarali katalizator vazifasini bajaradi.

Akhmedov A. (2023) O'zbekistonda chakana savdo sohasida raqamli transformatsiyaning yangi bosqichlari shakllanayotganini asoslaydi. Xususan, "Uzum Market" milliy elektron savdo platformasi mamlakat elektron tijoratining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Mazkur platforma an'anaviy savdo segmentlarini raqamli muhitga integratsiyalashda muhim rol o'ynab, iste'molchilar va sotuvchilarni onlayn savdo kanallari orqali internet xizmatlaridan faolroq foydalanishga, logistika jarayonlari va to'lov infratuzilmasining jadallashuviga rag'batlantirmoqda.

Urazov K. va Xushmurodova M. (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar elektron chakana savdaga bo'lgan iste'molchi talabi O'zbekistonda asosan qulaylik, narxlarning raqobatbardoshligi, yetkazib berish xizmatlari hamda zamonaviy to'lov tizimlarining mavjudligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, Urazbayeva I. (2024) elektron tijorat sohasidagi tartibga solish mexanizmlarining takomillashuvi, jumladan, yangilangan qonunchilik bazasi sektorning institutsional rivojlanishi uchun muhim omil ekanini qayd etadi.

Shu bilan birga, UzKursiv (2025-yil 29-aprel) tomonidan e'lon qilingan tahliliy materiallarga ko'ra, elektron chakana savdoning umumiy chakana savdodagi ulushi hozircha nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda.



Mintaqaviy tahlil agentliklari ma'lumotlariga asoslanib, elektron chakana savdo O'zbekiston umumiy chakana savdo aylanmasining qariyb 3 foizini tashkil etadi. Bu holat elektron tijorat rivojlanishining hali dastlabki bosqichda ekanini, ayniqsa yirik shaharlardan tashqarida joylashgan hududlar uchun kengayish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Biroq, xalqaro konsalting va tahlil kompaniyalari prognozlari elektron tijorat bozorining istiqbollari yuqori ekanini tasdiqlaydi. PR Newswire (2023) ma'lumotlariga ko'ra, KPMG tomonidan taqdim etilgan prognozlarga asosan O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2022-2027-yillar oralig'ida yetti baravardan ortiq o'sib, taxminan 2,2 milliard AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. Ushbu prognoz elektron chakana savdoning butun mamlakat bo'ylab, jumladan chekka hududlarda ham iste'mol tovarlari bozorini faol shakllantirishdagi strategik salohiyatini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar O'zbekistonda elektron chakana savdo rivojlanishining umumiy tendensiyalarini tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Asosiy yo'nalishlar raqamli infratuzilmani kengaytirish, logistika va to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish, iste'molchilar xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar, tartibga solish islohotlari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni integratsiyalash salohiyatini qamrab oladi. Shu bilan birga, mintaqaviy darajadagi empirik tadqiqotlarning nisbatan kamligi ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston hududlari bo'ylab iste'mol tovarlari bozorini rivojlantirishda elektron chakana savdoning rolini tahlil qilish maqsadida aralash usulga asoslangan metodologik yondashuv taklif etiladi. Ushbu yondashuv miqdoriy tahlilni sifat jihatidagi tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi.

Elektron chakana savdoning umumiy chakana savdoga nisbatan ulushini aniqlash uchun milliy va tarmoq manbalaridan, jumladan elektron tijorat bozori bo'yicha hisobotlar, chakana savdo aylanmasi statistikasi, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar bazalaridan foydalaniladi. Ma'lumotlar imkon bergan hollarda chakana savdo, elektron tijorat, demografik va infratuzilma ko'rsatkichlari mintaqalar kesimida (viloyatlar, shahar va qishloq hududlari) dezagregatsiya qilinadi.

Mintaqaviy tafovutlarni aniqlash maqsadida shahar va qishloq hududlari, iqtisodiy rivojlangan va rivojlanish bosqichidagi mintaqalar o'rtasida elektron tijoratga kirish sur'atlari hamda uning umumiy mintaqaviy chakana savdodagi ulushi qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda mintaqaviy statistika organlari, logistika kompaniyalari va elektron tijorat platformalaridan olingan ma'lumotlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

To'plangan ma'lumotlar asosida qiyosiy statistik tahlil amalga oshiriladi, ya'ni internet qamrovi, logistika infratuzilmasi, to'lov tizimlari rivoji va mintaqaviy elektron tijoratdan foydalanish darajasi o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi. Elektron tijoratni joriy etishning asosiy omillarini belgilash uchun regressiya tahlilidan foydalanish rejalashtiriladi.

Ba'zi hududlarda chakana savdo yoki elektron tijorat bitimlari bo'yicha ma'lumotlarning cheklanganligini hisobga olib, tadqiqotda imkon qadar bir nechta ma'lumot manbalarini uyg'unlashtirish va o'zaro solishtirish orqali natijalarning ishonchlilikini oshirish maqsad qilinadi.

Aralash metodologik yondashuv quyidagi ilmiy-amaliy natijalarga erishishga xizmat qiladi:

- elektron tijoratning kirib kelishi va uning O'zbekiston mintaqalari bo'yicha rivojlanish dinamikasini batafsil xaritalash;
- elektron chakana savdoning iste'mol tovarlarining mavjudligi, xilma-xilligi va narx shakllanishiga hududlar kesimida ta'sirini empirik asosda aniqlash;
- chakana savdodagi tarkibiy o'zgarishlar, jumladan onlayn platformalar orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hamda ta'minot zanjirlarining transformatsiyasini tahlil qilish;
- elektron tijoratning yanada inklyuziv rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy adabiyotlarda kuzatilayotgan bo'shliqni to'ldirib, elektron chakana savdoning o'tish davridagi iqtisodiyot sharoitida iste'mol tovarlari bozorini mintaqaviy darajada qanday shakllantirishini chuqur va differensial yondashuv asosida yoritishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

KPMG Uzbekistan (2023) hisobotlariga ko'ra, O'zbekistondagi elektron tijorat bozori 2022-yildagi taxminan 311 million AQSH dollaridan 2023-2024-yillarda 1,0-1,3 milliard AQSH dollarigacha kengaydi. Ushbu dinamika 2018-2023-yillar oralig'ida elektron tijorat bozorining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 45-50 foizni tashkil etganini ko'rsatadi. Simon Kemp (2025) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil oxiriga kelib O'zbekistonda aholining taxminan 89,0 foizi yoki 33,1 million kishi internetga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Shu bilan birga, elektron tijoratning umumiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi hozircha nisbatan cheklangan darajada qolmoqda. Elena Kim (2025) tomonidan olib borilgan bozor tahlillari elektron chakana savdo O'zbekistondagi umumiy chakana savdoning qariyb 3 foizini tashkil etishini ko'rsatadi. Internetdan foydalanish darajasining yuqoriligi va elektron tijorat ulushining nisbatan pastligi o'rtasidagi tafovut shuni anglatadiki, potensial iste'molchilar bazasi juda keng bo'lsa-da, elektron chakana savdo hali an'anaviy savdo shakllarini to'liq to'ldirish bosqichiga yetib kelmagan. Bu holat sektor rivojlanishining erta va o'rta bosqichlariga xos bo'lib, kelgusida sezilarli kengayish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Mahsulot toifalari tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, KPMG Uzbekistan (2023) ma'lumotlariga ko'ra elektron tijoratda elektronika va maishiy texnika mahsulotlari yetakchi o'rinni egallab, so'nggi yillarda onlayn savdoning qariyb 35 foizini tashkil etgan. Keyingi muhim toifalar qatoriga moda mahsulotlari (kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlar) kirib, ularning ulushi taxminan 19 foizni tashkil etadi. Shuningdek, uy-ro'zg'or buyumlari, mebel, sog'liq va go'zallik mahsulotlari ham elektron savdoda barqaror o'sishni namoyon etmoqda.

Nisbatan kamroq rivojlangan toifalar sirasiga oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Bu holat logistika jarayonlarining murakkabligi va kundalik iste'mol tovarlari uchun an'anaviy chakana savdo kanallarining hali ham muhim ahamiyatga ega ekanini aks ettiradi. Shu bilan birga, mazkur tarkibiy tuzilma O'zbekiston elektron tijorati ko'plab rivojlanayotgan bozorlarga xos bo'lgan bosqichma-bosqich rivojlanish modeliga mos kelishini ko'rsatadi, ya'ni dastlab yuqori qiymatli va tez buzilmaydigan mahsulotlar onlayn savdoga o'tadi.

PR Newswire (2023) tomonidan keltirilgan o'sish trayektoriyasi va internet xizmatlaridan foydalanishning ortishi (2027-yilga kelib 92-93 foizdan oshishi prognoz qilinmoqda) asosida regressiyaga tayangan prognozlar quyidagi ijobiy tendensiyalarni ko'rsatadi:

- elektron tijorat bozorining umumiy qiymati 2027-2028-yillarga kelib 2,0-2,4 milliard AQSH dollariga yetishi mumkin;
- elektron tijoratning umumiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi 8-12 foizgacha ko'tarilishi kutilmoqda, bu esa uni chakana savdoning muhim segmentiga aylantiradi;
- logistika infratuzilmasi va raqamli to'lov tizimlarining izchil rivojlanishi sharoitida tez buziladigan va kundalik iste'mol tovarlarining ham asta-sekin onlayn savdoga integratsiyalashuvi mumkin.

Istiqbolli tendensiyalar bilan bir qatorda, sektor rivojlanishining ayrim xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Jumladan, qishloq va kam daromadli hududlarda ayrim uy xo'jaliklari hali ham onlayn to'lovlar va yetkazib berish jarayonlariga ehtiyotkorona munosabat bildirayotganini qayd etish mumkin. Bu holat asosan xizmatlar sifati va ishonchligini yanada oshirish zarurati bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bir qismi elektron platformalarga moslashishda ma'lum tashkiliy va logistika masalalariga duch kelmoqda, biroq bu muammolar raqamli infratuzilma va institutsional qo'llab-quvvatlash kengaygani sari bosqichma-bosqich bartaraf etilmoqda.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilgan xulosalari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekistonda elektron tijorat bozori yuqori sur'atlarda (yillik 45-50 foiz) rivojlanmoqda va bu kelajakda bozor ulushining sezilarli kengayishidan dalolat beradi.
2. Elektron chakana savdo hozirda asosan elektronika, moda va nisbatan yuqori qiymatga ega tovarlar segmentida jamlangan bo'lib, kundalik iste'mol tovarlari bo'yicha salohiyat bosqichma-bosqich shakllanmoqda.
3. Elektron savdoning mintaqalar va demografik guruhlar bo'yicha tarqalishi turlicha bo'lib, bu hududiy rivojlanish strategiyalarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun elektron chakana savdo yangi bozorlar, kengroq talab va raqobatbardosh narxlar orqali muhim rivojlanish imkoniyatlarini yaratmoqda.
5. Prognozlarga ko'ra, 2027-2028-yillarga kelib elektron tijorat chakana savdo aylanmasining 8-12 foizini egallashi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda elektron chakana savdo tez, ammo bosqichma-bosqich kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Yuqori o'sish sur'atlari, keng raqamli qamrov va yosh demografik tuzilma sektorning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari yuqori ekanini ko'rsatadi. Logistika, raqamli to'lovlar va iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilsa, elektron tijorat nafaqat shahar, balki mintaqaviy va qishloq hududlarida ham iste'mol bozorining yanada integratsiyalashgan va samarali shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron chakana savdo O'zbekiston iste'mol tovarlari bozorining tobora muhim va ta'sirchan tarkibiy qismiga aylanib bormoqda, garchi uning rivojlanish sur'atlari mintaqalar kesimida turlicha namoyon bo'layotgan bo'lsa-da. So'nggi yillarda mazkur sektor jadal kengayib, 2022-yildagi taxminan 311 million AQSh dollaridan 2024-2025-yillarga kelib 1 milliard AQSh dollaridan ortiq hajmga yetdi. Shu bilan birga, elektron tijorat hozircha milliy chakana savdo aylanmasining qariyb 3 foizini



tashkil etmoqda. Ushbu holat mamlakatda raqamli tijorat tizimi faol rivojlanishning o'tish bosqichida ekanini ko'rsatadi: o'sish uchun zarur shart-sharoitlar shakllangan, endilikda esa keng ko'lamli joriy etish bosqichiga o'tish uchun institutsional va infratuzilmaviy imkoniyatlar mustahkamlanib bormoqda.

Tahlil natijalari elektron chakana savdoning, ayniqsa elektronika, moda va uy-ro'zg'or buyumlari kabi yuqori qiymatli va standartlashtirilgan mahsulotlar segmentida sezilarli tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tez harakatlanuvchi iste'mol tovarlarining nisbatan sekinroq joriy etilishi logistika va infratuzilma rivojlanishining bosqichma-bosqich xarakterga ega ekanidan dalolat beradi. Bu jarayon qishloq va chekka hududlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'lib, raqamli savodxonlik darajasini oshirish, kurerlik xizmatlari qamrovini kengaytirish va moliyaviy inklyuzivlikni mustahkamlash orqali bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin. Internetga kirish imkoniyatining deyarli universal darajaga yetgani shuni ko'rsatadiki, mavjud raqamli tafovutlar texnologik emas, balki tashkiliy va institutsional choralar orqali yumshatilishi mumkin bo'lgan rivojlanish nuqtalaridir.

Tadqiqot, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun onlayn bozorlarning yuqori transformatsion salohiyatini tasdiqlaydi. Elektron savdo kanallaridan foydalangan kichik biznes subyektlari mijozlar bazasining kengayishi va savdo hajmining sezilarli o'sishini qayd etmoqda. Bu holat elektron chakana savdoning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi muhim mexanizm sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu ijobiy ta'sirni yanada kengroq qatlamlarga yoyish uchun platforma to'lovlari, logistika xarajatlari va ishonch bilan bog'liq masalalarni izchil hal etish zarur. Bu esa inklyuziv raqamli bozorni shakllantirish yo'lidagi muhim vazifa hisoblanadi.

Kelgusiga nazar tashlaganda, miqdoriy prognozlar O'zbekiston elektron tijorat bozori 2027-2028-yillarga kelib 2,0-2,4 milliard AQSh dollariga yetishi mumkinligini, uning umumiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi esa 8-12 foizgacha oshishini ko'rsatadi. Bu jarayon elektron tijoratning erta qabul qilish bosqichidan ommaviy bozor integratsiyasi bosqichiga o'tayotganini anglatadi. Ushbu o'tish samarali va muvozanatli amalga oshirilishi uchun davlat organlari, logistika provayderlari, raqamli to'lov institutlari va elektron savdo platformalari o'rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarga investitsiyalar elektron chakana savdoning hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, elektron chakana savdo O'zbekiston iste'mol tovarlari bozorini qayta shakllantirish, raqobat muhitini kuchaytirish, tovarlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratishda katta salohiyatga ega. Mazkur salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish strategik siyosiy qo'llab-quvvatlash va mamlakatning raqamli hamda logistika ekotizimiga doimiy investitsiyalarni talab qiladi. Ushbu shartlar izchil amalga oshirilgan taqdirda, elektron chakana savdo nafaqat tijorat innovatsiyasining muhim yo'nalishi, balki O'zbekistonda muvozanatli mintaqaviy o'sish va iqtisodiy modernizatsiyaning kuchli harakatlantiruvchi omiliga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhmedov A. (2023). Uzun Market: Powering Uzbekistan's e-commerce revolution. Science Sage Journal of Applied Scientific Research. <https://sciencesage.info/index.php/jasr/article/view/399>
2. Abdirashidov A. (2025). Mintaqaviy iste'mol tovarlari bozorlarida raqobat muhitini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(6), 380-390. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss6-pp380-390>
3. Azimova M.B. (2025). E-commerce as a catalyst for trade growth: A comparative study of China and Uzbekistan. Raqamli iqtisodiyot (Digital Economy), (10), 1095-1104.
4. Astanukulov O.T., Abdurakhmanova G.K., Balbaa M.E. & Goyipnazarov S.B. (2022). Ensuring the smooth operation of physical technology companies in distributed environments. ACM International Conference Proceeding Series, 66-73.
5. Almtiri Z., Miah S. & Noman N. (2023). Application of e-commerce technologies in accelerating the success of SME operation. In Lecture Notes in Networks and Systems. https://doi.org/10.1007/978-981-19-1610-6_40
6. Kim E. (2025, April 29). E-commerce accounts for just 3% of Uzbekistan's retail market. Kursiv Media. <https://uz.kursiv.media/en/2025-04-29/e-commerce-accounts-for-just-3-of-uzbekistans-retail-market/>
7. Kemp S. (2025). Digital 2026: Uzbekistan. DataReportal. <https://datareportal.com/reports/digital-2026-uzbekistan>
8. Pulatova M. (2025). Sifatli iqtisodiy o'sish mamlakat aholisining turmush darajasi va farovonligini oshirishning asosiy omili sifatida. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(6), 370-379. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss6-pp370-379>
9. Уразов К. & Хушмуродова М. (2025). Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане. Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт, (4), 1625-1632. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index>
10. Уразбаева И. (2024). Развитие электронной коммерции в Узбекистане. Инноватионс ин Сиенсе анд Течнологиес, 1(5), 57-62. <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/451>
11. KPMG Uzbekistan. (2023). E-commerce in Uzbekistan: Market research and analysis. KPMG. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2023/E-commerce%20in%20Uzbekistan.pdf>



12. PR Newswire. (2023). Uzbekistan e-commerce market is set to grow 7 times to 2.2 billion USD by 2027 – KPMG. <https://www.prnewswire.com/news-releases/uzbekistan-e-commerce-market-is-set-to-grow-7-times-to-2-2-billion-usd-by-2027-kpmg-301910649.html>
13. Yashil Iqtisodiyot. (2024). Consumer preferences in electronic trade in Uzbekistan. Journal of Green Economy Development. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5203>
14. YUZ.uz. (2025). 94.2% of Uzbekistan's population uses the internet. National News Portal. <https://yuz.uz/ru/news/v-uzbekistane-942-naseleniya-polzuyutsya-internetom>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
